“OT EGASI” (SHUKUR XOLMIRZAYEV) HIKOYASINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Namangan shahar 1- sonli IDUM
oliy toifali o‘zbek tili o‘qituvchisi
Jabborova Zilola Turdaliyevna
jabborovzilola16@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” hikoyasi lingvokulturologik aspektda tadqiq etilib, badiiy matnda o‘zbek xalqining milliy dunyoqarashi, etnomadaniy xotirasi, turmush tarzi va qadriyatlar tizimini ifodalovchi lisoniy birliklarning semantik, konseptual, pragmatik hamda aksiologik xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqotda lingvokulturema, konsept, milliy-madaniy realiya, etnomadaniy kod, ramz va nutqiy etiket tushunchalariga asoslanildi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, lingvokulturema, konsept, milliy-madaniy realiya, OT konsepti, milliy xarakter, etnomadaniy kod.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda tilni faqat grammatik, leksik va semantik tizim sifatida emas, balki muayyan xalqning tarixiy xotirasi, milliy dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi antropotsentrik hodisa sifatida tadqiq etish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Til va madaniyatning ana shunday o‘zaro munosabatini o‘rganuvchi lingvokulturologiya XX asr oxiriga kelib mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. V.A. Maslova lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot maydonini til va madaniyatning o‘zaro ta’siri, tilda mujassamlashgan milliy-madaniy axborot hamda insonning lisoniy-madaniy olami bilan bog‘laydi [2, 5 – 18-b.]. V.V. Vorobyov esa lingvokulturologiyani til va madaniyat birliklarini yaxlit, tizimli va o‘zaro teng munosabatda tadqiq qiluvchi sintetik ilmiy yo‘nalish sifatida baholaydi [3, 4-b.].

Badiiy matn lingvokulturologik tadqiqot uchun muhim manbalardan hisoblanadi. Chunki unda muayyan xalqning faqat leksik boyligi emas, balki turmush modeli, tarixiy tajribasi, qadriyatlar iyerarxiyasi, ijtimoiy munosabatlari, an’anaviy odatlari, nutqiy etiketi va dunyoni konseptuallashtirish usullari ham aks etadi. Shu sababli badiiy asardagi milliy-madaniy realiyalar, obrazlar, murojaat birliklari, metaforalar, marosimiy leksika va etnografik detallarning semantikasi badiiy mazmundan tashqari lingvokulturologik mazmunga ham ega.

O‘zbek tilshunosligida antropotsentrik yondashuv badiiy matnni inson, til, tafakkur va madaniyat munosabatlari doirasida o‘rganish imkoniyatlarini

kengaytirdi. D. Xudoyberganova antropotsentrik matn tadqiqida til egasining tafakkuri, madaniy tajribasi va kommunikativ faoliyatining matn shakllanishidagi o‘rniga alohida e’tibor qaratadi [3]. Sh. Safarovning kognitiv tilshunoslikka doir tadqiqotlarida esa til birliklari orqali inson ongida voqelikning konseptuallashtirilishi va kategoriyalashtirilishi masalalari yoritiladi [4].

Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” hikoyasi bunday tadqiqot uchun sermahsul material hisoblanadi. Unda o‘zbek xalqining milliy dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi til birliklari talaygina, shuning uchun ularning lingvokulturologik, konseptual, pragmatik va aksiologik xususiyatlarini tahlil qilish ham ancha qiziqarlidir.

Asarning dastlabki qismidayoq bosh qahramon Inodning uchta “boyligi” – qishlog‘i, maktabi va qorabayir oti alohida ta’kidlanadi [1]. Mazkur “uchlik” oddiy predmet va makonlar yig‘indisi emas, balki qahramonning ma’naviy-madaniy identitetini belgilovchi aksiologik tizimdir. Qishloq uning YURT va AJDOD, maktab ILM, KELAJAK va MAS’ULIYAT, qorabayir esa OT, ERKINLIK, ER YIGITLIK, OTA YODGORLIGI va OR-NOMUS konseptlari bilan bog‘lanadi.

Hikoyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ot obrazi asarda oddiy hayvon yoki transport vositasi maqomidan chiqadi. Qorabayir Inodning otasi bilan bog‘liq ajdodiy xotiraning davomchisi, qahramonning og‘ir ruhiy holatida hamrohi, ko‘pkaridagi g‘urur manbayi va shaxsiy erkinligining belgisi sifatida namoyon bo‘ladi [1]. Shuning uchun Egamberdi Xudoyberdiyevning otni egallashga urinishi Inod tomonidan oddiy mulkiy da’vo emas, balki uning shaxsiy qadr-qimmati va tarixiy xotirasiga tajovuz sifatida qabul qilinadi.

Asarning lingvokulturologik qiymatini hikoyadagi milliy realiyalar ham oshiradi. Qorabayir, arg‘umoq, baytal, to‘riq, ko‘pkari, uloq, qimiz kabi birliklar o‘zbek xalqining yilqichilik va chavandozlik madaniyatiga oid bilimlarini faollashtirsa, chorbog‘, ko‘rpacha, sholcha, chalob, chakki, suzma, tulum, yer tandir birliklari qishloq maishiy madaniyatining lingvistik manzarasini yaratadi [1]. Yana hikoyada qabriston, ruh, tilovat singari birliklar ham keltirilganki, ular xalqning diniy-marosimiy va memorial madaniyatini ifodalovchi lisoniy vositalar sifatida yuzaga chiqqanini kuzatamiz.

Asar bilan tanishish davomida hikoyadagi milliy-madaniy realiyalarni aniqlash va tasniflashga harakat qildik va quyidagi vazifalarni belgilab oldik: ot konseptining semantik tarkibini ochish; ot obrazining ajdodlar xotirasi, er yigitlik, erkinlik va or-nomus bilan aloqasini ko‘rsatish; mehmondo‘stlik va dasturxon madaniyatiga oid birliklarni tahlil qilish; xalqona murojaatlarning pragmatik imkoniyatlarini aniqlash; diniy-marosimiy birliklarning madaniy semantikasini yoritish; xalqona va ma’muriy diskurs o‘rtasidagi

qarama-qarshilikni belgilash.

“Ot egasi” hikoyasidagi qorabayir obrazini OT → OTA → AJDOD XOTIRASI → ER YIGIT → OR-NOMUS → ERKINLIK → O‘ZLIK konseptual modeli doirasida izohlasak bo‘ladi. Shuningdek, asardagi yilqichilik, gastronomik, maishiy, diniy-marosimiy va kommunikativ birliklarni bir-biridan ajratilgan tasodifiy etnografik unsurlar sifatida emas, balki Inodning milliy-madaniy identitetini shakllantiruvchi yaxlit lingvokulturologik tizim sifatida baholashni ma’qul topdik.

Ushbu asarni lingvokulturologik tahlil qilganimizda, qorabayir, ko‘pkari, uloq, qimiz, chalob, chakki, suzma, tulum, yer tandir, ko‘rpacha, tilovat kabi birliklarning milliy madaniyat bilan bog‘liq qo‘shimcha semalarini ham aniqladik. Mazkur metod til birliklarining denotativ mazmunidan tashqari etnomadaniy konnotatsiyasini aniqlash imkonini beradi.

Agar asarga konseptual tahlil vositasida yondashsak, OT, YURT, OTA, MAKTAB, MEHMON, DASTURXON, KO‘NGIL, XOTIRA va OR-NOMUS kabi asosiy konseptlar ajratib olinishi mumkinligini kuzatdik. Mazkur birliklarning badiiy matndagi semantik aloqalari qahramonning milliy-madaniy olamini modellovchi konseptual tizim sifatida o‘rganildi.

Hikoyani kontekstual va semantik tahlilga tortsak, ular yordamida birliklarning aynan hikoya doirasida kasb etgan qo‘shimcha ma’nolarini belgilab olsak bo‘ladi. Jumladan, ot umumxalq tilida hayvon nomini bildirsa-da, hikoya kontekstida u ota yodgorligi, sadoqat, erkaklik sha’ni, erkinlik va o‘zlik belgisi vazifasini bajarganini kuzatamiz.

Ushbu badiiy matnni pragmatik tahlil qilganimizda, unda ishtirok etgan “jo‘ra”, “jo‘rajon”, “Inodboy”, “keling”, “oling”, “dasturxonga qarang” kabi birliklarning kommunikativ maqsadi boshqa ekanligini aniqladik. Bu usul bir xil lisoniy shaklning turli kommunikativ vaziyatlarda samimiyat, hurmat, manipulyatsiya yoki bosim ma’nolarini ifodalashi mumkinligini ko‘rsatdi.

Matnni aksiologik tahlil asosida tadqiq qilganimizda qahramonlar nutqi va xatti-harakatlaridagi ijobiy hamda salbiy qadriyatlarni ajratishni lozim topdik. Jumladan, Inod obrazida yurtga sadoqat, ma’rifat, ota xotirasi, or-nomus va vafodorlik ijobiy qadriyatlar maydonini hosil qilsa, Egamberdi obrazida tamagirlik, manfaatparastlik, tahdid va mansabdan foydalanish salbiy aksiologik maydonni yuzaga keltirganini aniqladik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolmirzayev Sh. Ot egasi: hikoya [Elektron manba]. – Uzsmart elektron kutubxonasi.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – Москва: «Академия», 2001. – 208 с.

3. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – Москва: Российского университета дружбы народов, 1997. – 331 с.
4. Xudoyberganova D.S. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.